

XUSUSIYATLARI SHARHI

*Tohirova Fariza Rustamjon qizi*

*SamDU filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik yo'nalishi*

*II bosqich magistranti*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi “Saddi Iskandariy” dostonining kommunikativ aspektlari tadqiq etilgan. Jumladan, asar tarkibidagi kommunikativlik, xususan, siyosiy kommunikativlik unsurlari o'rganilgan. Mumtoz badiiy asar misolida so'z va axborotning kommunikatsiyalashuvdagi o'rni ochib berilgan.

*Kalit so'zlar:* Alisher Navoiy, Saddi Iskandariy, Navoiyshunoslik, Kommunikatsiya, Muloqot, Siyosiy kommunikativlik.

**KIRISH**

Qadimdan sharqda keng tarqalgan mashhur shaxslardan biri Iskandar Zulqarnayn obraziga diniy adabiyotlardan keyin badiiy adabiyotda Firdavsiy (934-1024) “Shohnoma”sida, keyinchalik “Xamsa”chilik an'anasida ijod qilganyetuk ijodkorlar Nizomiy Ganjaviy (1141-1209), Husrav Dehlaviy (1253-1325), Abdurahmon Jomiy (1414-1492) kabi ulug'lar o'z ijodlarida murojaatqilishgan.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini shu kungacha ko'plab taqqiqotchilar filologik jihatdan tadqiq qilib o'rganishgan. Zamon taraqqiyoti va ilm-fan rivojidadagi o'zgarishlar tufayli “Saddi Iskandariy”dostonini kommunikatsiya bilan bog'lab o'rganish, uning ahamiyatini yosh avlodga yetkazish, xususan siyosiy kommunikativ jihatlarini o'rganish va amaliyotga tadbiq qilish ham dolzarb ahamiyatga ega.

“Saddi Iskandariy” dostoni yirik doston bo'lib 89 bob, 7215 baytdan tashkil topgan. Saddi Iskandariy dostonini to'la ma'noda siyosiy kommunikatsiyaga oid

asar deya e'tirof etishimiz mumkin. Kommunikatsiya tushunchasi "aloqa", "muomala" va "munosabat" ma'nolarini anglatadi. Kommunikatsiya tushunchasi haqida Siyosiy fanlari doktori, professor Muqimjon Qirg'izboevning 2013 yil "Yangi asr avlodi" nashriyotida chop etilgan "Siyosatshunoslik" kitobining 416-sahifasida "Kommunikatsiya o'z ichiga bir necha tushunchalarni oladi. Ular quyidagilardan iborat: moddiy va nomoddiy dunyodagi har qanday ob'ektlarning aloqa vositasi; insondan insonga nisbatanaloha vositasi; insondan insonga nisbatan aloqa, axborot uzatish; jamiyatdagi axborot almashish (ijtimoiy axborot)."

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

"Kommunikatsiya" tushunchasi adabiyotlarda XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Axborot almashish bir tomon axbrotni taklif etib, ikkinchi tomon uni qabul etgandagina ro'y beradi. Shu tarzda axborot almashuv kommunikatativ jarayon deyiladi. Kommunikatsiya tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Boshqaruv (yoki siyosiy) organi va atrof-muhit bilan kommunikatsiyalashuv;

- Davlat organlaridagi o'zaro darajali kommunikatsiya; vertikal – pasayibva ko'tarilib boruvchi; gorizonta – boshqaruv organi turli bo'linmalari bilan o'zaro axborot almashuv; - "rahbar – bo'ysunuvchi" tarhi asosidagi kommunikatsiya;

- norasmiy kommunikatsiya; Jamiyatda insonning yashashi va faoliyati uchun tabiiy zarurat sifatida paydo bo'lgan insoniy kommunikatsiya ham rivojlandi. Insoniy kommunikatsiya – ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning asosida xabar jo'ntuvchilarning unga ma'lum mazmun baxsh etishi yotadi."

Shuningdek bugungi kunda ijtimoiy ongning rivojlantirish va yuksakfuqorolik pozitsiyasiga ega kadrlar shakllanishi uchun, har bir talaba Koykovusning "Qobusnoma", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning barcha asarlarini, xususan "Munshaot" dagi Badiuzzamon Mirzoga yozgan maktubini yaxshi o'qib o'rganmog'i maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ulug' Navoiy ham davlat va jamiyatni isloh etish va boshqarishda faol ishtirok etgan va o'z asarlari bilan zamondoshi, hukmdor Husayn Bayqoroga

ko'makdosh va barcha shoxzodalarga ma'naviy ustoz edi. O'z dostonlarini yozib, hattotlarga ko'chirtirib, o'z davrida iqlimlarga tarqatgan va bu ishlari uchun yuksak darajada qadrlangan.

Davlat va jamiyatni rivojlantirishda kommunikatsiyaning barcha ko'rinishlaridan foydalanish zarur hisoblanadi. Bugun matbuot va radio televidenie bevosita internetga ko'chayotgan, tezlik muhim rol o'ynayotgan fursatlarda, ijtimoiy ongni shakllantirish va boshqarishda Alisher Navoiy ma'naviy merosining o'rni va roli yuksak darajada.

Xulosa sifatida shuni aytish mumukinki, kitob avvalo komunikatsiya vositasi; barcha mediologik xususiyatlarga ega.

1. **Insoniy kommunikatsiya**, ya'ni muallifning Allohga hamd aytishi, ustozlar ruhidan madad so'rashi, an'analarni davom ettirishda qalbidan yordam so'rashi;

2. **Vositali kommunikatsiyaning** ibtidoiy ko'rinishi, narsa buyumlar ramzi vositasida kommunikatsiya qilish. Doroning Iskandarga chavgon, to'p va kunjud yuborishi; Elchilarning borib kelishi va shu kabilar. Yana kommunikatsiyaning zamonaviy ko'rinishlari ham mavjud.

3. **Vositasiz kommunikatsiya**. Ya'ni dostonning 18, 22, 26, 30, 34, 38, 46, 51, 55, 59, 63, 67, 71, boblarida Iskandar Arastudan, 71-, 73-bobida Suqrot dan savol so'raydi va javob oladi. Yani to'g'ridan-to'g'ri muloqot qiladi. 79-bobda bir kishi Luqmondan savol so'raydi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Dostonda mamlakatlar, davlatlar, jamiyatlar aro kommunikatsiya va shaxslar aro kommunikatsiyaning barcha formalari va unsurlari mavjuddir.

Shu ma'noda Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonining kommunikativ jihatlarini o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Alisher Navoiy. Xamsa: Saddi Iskandariy.-T:G'.G'ulom, NMB. F.f.n. MavjudaHamidova nashrga tayorlagan nusxa.

2. Alisher Navoiy. Xamsa: Saddi Iskandariy. T. "G'.G'ulom", NMIU.

8-jild.2013 yil.

3. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O.

Navoiyshunoslik.-T:“Tamaddun”, 2018 y.

4. Qirg'izboev M. Siyosatshunoslik. T. “Yangi asr avlodi” NMIU. 2013 y.

5. Alisher Navoiy. Xamsa:Saddi Iskandariy. Izohlar bilan nashrga tayyorl.

P. Shamsiev; Mas. muharrir A. Abdug'afurov. -480b.